

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI DARS JARAYONIDA SHAKLLANTIRISH

Zuxra Akramova¹

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim “Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta‘lim” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tafakkur va tafakkur shakllari haqida qisqacha ma‘limot berilgan hamda bir necha psixologlarning fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda mantiqiy masalalarni qo‘llash orqali bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga doir 1-sinf matematika darsidan 1 soatlik dars ishlanma ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, fikrlash, mantiqiy masala, sonli bog‘lanish.

Аннотация: В данной статье дается краткий обзор мышления и форм мышления, а также взгляды некоторых психологов. Существует также 1-часовой урок математики от математики 1 класса, чтобы помочь детям развить логическое мышление, используя логические задачи для развития своих навыков логического мышления в начальной школе.

Ключевые слова: Мышление, шкалы мышления, понятие, суждение, вывод, анализ, обобщение, сравнение, абстракция, уточнение, мышление, логическая задача, числовая связь.

Annotation: This article gives a brief overview of thinking and forms of thinking, as well as the views of several psychologists. There is also a 1-hour math lesson from Grade 1 Math to help children develop logical thinking by using logical problems to develop their logical thinking skills in elementary school.

Keywords: Contemplation, contemplation, concept, judgment, conclusion, analysis, generalization, comparison, abstraction, clarification, reasoning, logical problem, numerical connection.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo’lib o’sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”¹.

O’quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o’rgatish jamiyat hayotida tub burilishlarni amalga oshiradi. Negaki mamlakatimizda yuksak e’tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislariga katta ehtiyoj bor.

O’quvchilarning shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda o’quv predmetlarining o’rni beqiyos. Bu borada, ayniqsa, matematika ta’limi zimmasiga katta mas’uliyat tushadi. Darslik asosan o’quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko’nikmalariga ega bo’lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

Insonning dunyoni anglashi, tushunishi, unga ongli munosabatda bo’lishi kabi bilish jarayonlarini tafakkur yuritish, fikrlash jarayoni deyish mumkin. Fikrlash jarayonlarining psixologik asoslarini psixolog V.Karimova tahlil qilgan. U: fikrlash inson miyasi faoliyatidir, – deb ko’rsatadi va fikriy operatsiyalarni quyidagicha tahlil qiladi. Eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab muammolarni hal etishga qaratilgan operatsiyalar hammasi miyada sodir bo’ladi. Miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o’zaro uzviy bog’liqdir.

Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band. Ularni tartibga solish, keragiga qaratish, ichki yoki tashqi nutq yordamida uni yechish - fikrlash jarayonidir².

Tafakkur yoki fikrlashning quyidagi shakllari yoki mahsuli mavjud:

Tushuncha - tafakkurning shunday shakli yoki mahsuliki, u narsa va hodisalarning eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o’zida aks ettiradi. Ular umumiy, juz’iy, konkret yoki mavhum bo’lishi mumkin.

Hukm - atrofda narsa, hodisalar o’rtasidagi bog’liqlikni aks ettiradi. Hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko’p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog’liqliklarni tasdiqlaydi, inkor qiladi, rost yoki yolg’on bo’ladi.

¹Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.

² Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.



Xulosalar - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo‘lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlardan yangi fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Tahlil qilish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar fikrlash jarayonini tashkil etadi. Quyida ularning har biri ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Tahlil qilish - bu muammoni fikran qismlarga ajratishdir.

Umumlashtirish - alohida qismlarni yoki elementlarni fikran bir butunga birlashtirib o‘rganishdir.

Ta‘lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o‘quvchilarda tahlil qilish va umumlashtirish darajasining oshishi kuzatiladi. Tahlil qilish sekin-asta ko‘rgazmali-amaliylikdan ko‘rgazmali va mantiqiy yakun tomon rivojlanadi.

Taqqoslash - o‘xshashliklar va tafovutlarni topish orqali bilish obyektlarini qiyoslash demakdir. Bu operatsiya boshqa barcha fikriy operatsiyalar asosida yotadi.

Mavhumlashtirish - bilish obyektining bir xususiyatini ajratib olib, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiyadir. Bu xususiyatlar o‘rganilayotgan predmet va hodisalarning «ichiga» kirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi rahbarligida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi – hissiy ko‘rgazmalilikdan fikr yuritishga o‘tiladi hamda tushunchaga aylanadi.

Aniqlashtirish - mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya, u umumiydan xususiyga o‘tish, natijada uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali namoyon bo‘ladi.

Mavhumiylik va aniqlashtirish birligi muammoni o‘rganish jarayonida o‘rnatiladi. Bu birlik o‘zaro munosabatga fiziologik asos - ikkinchi signal tizimiga ega. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar va dalillar aniqlashtirilgandagina erishiladi.

Boshlang‘ich sinf ta‘limi jarayonida fikrlash qobiliyatini aniqlashtirish ikki shaklda olib boriladi:

- 1) hissiy - ko‘rgazmali vositalar (matnlar, rasmlar, jadvallar) asosida;
- 2) so‘z orqali - mavhum shaklda (hikoya qilish, tushuntirish, maxsus topshiriqlarni hal etish).

Fikrlash faoliyatiga konkret ta‘rif beradigan bo‘lsak.



F i k r l a s h - bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o‘laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir³.

Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg‘otib, tafakkurni rivojlantiradi.

Biz boshlang‘ich sinf matematika darslarida bunday hollarga duch keldik. Bu darslarda o‘quvchilarga raqamli masalalar, matematik sofizmlar, boshqotirmalar, masala, she‘r, hazil masalalarni yechish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishga doir masalalarni ko‘raylik. Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish boshqa har qanday o‘quv predmetini o‘qitish kabi ta‘lim, tarbiya va amaliy vazifalarni hal qilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati tarbiyachi ixtisosiga, uning kasbga oid tayyorgarchiligiga bog‘liq.

O‘quvchi qiyin masalani zo‘r berib yechishga harakat qiladi, biroq, u hali qanday qilib yechishni bilmaydi; o‘quvchi masalaning yechimini o‘zining tafakkur qilish jarayoni natijasidagina topa oladi. Masalaning yechimini allaqachon bilgan o‘qituvchi o‘quvchilarga yordam bera boshlaydi.

Masalaning butun yechilish yo‘lini o‘quvchiga maslahat berib, ishining asosiy qismini o‘quvchining o‘zi bajarishi uchun mantiqiy tafakkurini tarkib toptirish va shakllantirish mumkin. Jumladan, mantiqiy tafakkur – voqelikni analiz va sintez qilish, uni bevosita hamda umumlashtirib aks ettirish jarayonidir.

Ma‘lumki, tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ayni hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkurning individual xususiyatlariga:

- mustaqillik;
- o‘zgaruvchanlik;
- fikrning tezligi kabi xususiyatlari kiradi.

Quyida 1-sinf matematika fanidan 1 soatlik dars namunasini keltiramiz.

³ Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.



1-bo'lim

7-dars

Darsning maqsadi

- shakllar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlash va uni davom ettirish

Asosiy tushunchalar

- narsalarni tasniflash
- shakllar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlash
- qatorni davom ettirish

Didaktik materiallar

- rangli qalamlar (har bir o'quvchi uchun)

Standartlar

O'BTD.M.01.AMY.KK.1

Berilgan qoidaga mos keluvchi shakllar ketma-ketligini tuzadi va uni davom ettiradi.

Shakllar ketma-ketligidagi qonuniyat

KIRISH

5 daqiqa

KUN MASHQI

3 daqiqa

- **Kalendar:** O'quvchilardan bugungi sana va fasl so'raladi.
- **Sanash:** O'quvchilardan parta ustida turgan predmetlarini sanab chiqish so'raladi.
- **Mashq:** Xotirani yaxshilash uchun mashq. Keling, xotira mashqini bajaramiz. O'qituvchi biror son aytadi. Bir o'quvchi shu sondan oldin va keyin kelgan sonni aytadi. Birinchi o'quvchi boshqa o'quvchiga yana bir son aytadi. Ikkinchi o'quvchi ham shu tariqa davom ettiradi

O'tgan mavzuni takrorlash

2 daqiqa

2-3 xil rangdan tuzilgan ketma-ketlikni og'zaki ayting va davom etishni so'rang.

ASOSIY QISM

40 daqiqa

Misolni ko'rsatish va mustaqil ish

5 daqiqa

Bugun biz shakllar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlashni va uni davom ettirishni o'rganamiz.

Darslikdagi 1-topshiriqqa qarang. Shakllar



joylashishi qonuniyatini o'rganing. Bo'sh katakka nimaning rasmini qo'yish mumkin?

Muhokama

15 daqiqa

1-QISM O'quvchilar javoblari bilan o'rtoqlashadilar

Kamida 3 nafar o'quvchidan sinfga javoblarni topish jarayonini tushuntirishlarini so'rang.

- Bo'sh katakka nima qo'ysak bo'ladi?
- Nima uchun bu javoblarni tanladingiz?
- Qatorda qanday qonuniyatni topdingiz?

Xato javoblarni muhokama qilish

Bir o'quvchi menga 1-rasmdagi keyingi shakl to'rtburchak dedi. Shu javobga siz nima deysiz? To'g'rimi yoki noto'g'ri? Nima uchun? Bu o'quvchiga nima deb javob bergan bo'lar edingiz?

O'quvchilarga to'g'ri javob berishlarida yordam bering

2-QISM Misol va yangi topshiriq

Muhokama mavzusi

• 3-4-topshiriqlardagi qonuniyatni aniqlab, qatorni davom ettirish Darslikdagi 3-4-topshiriqlarni ko'rsating va bo'sh katakni to'ldirishlarini so'rang.


Keling, endi yana topshiriqlar bajaramiz. Bu topshiriqni yechganda, biz shakllar ketma-ketligiga e'tibor qaratamiz. Shakllar ketma-ketligi takrorlanadi.

- 3-topshiriqda qonuniyat qanday?

Davom ettiring-chi.

- 4-topshiriqda qonuniyat qanday?

Bo'sh kataklar o'mida nimalar turishi kerak?



Ketma-ketlikdagi qonuniyat 1-baholamiz, 7-dars

Shakllarni tasniflang. Shakllar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlang va uni davom ettiring:

1. Uchburchak kvadrat

2. bodring pomidor

3. doira uchburchak

4. ko'k likopcha va qoshiq sariq likopcha va qoshiq

Tushib qolgan shakllarni chizing:

5. uchburchak doira

6. o'ng yuqori

7. uchburchak to'rtburchak kvadrat



Amaliy topshiriq

15 daqiqa

- 5-7-topshiriqlardagi shakllar ketma-ketligini o‘rganing.
- Bo‘sh katakchalarga mos shaklni chizing.

O‘qituvchining kuzatishlari

O‘qituvchi o‘quvchilar topshiriqni bajarayotganlarida, quyidagilarga e‘tibor berishi kerak: qonuniyatni shakllarga nisbatan o‘rganishi va shakllarni qonuniyat bo‘yicha to‘g‘ri tanlashiga.

Darsga yakun yasash (butun sinf)

5 daqiqa

Darsga yakun yasash: “Bugun nimalarni o‘rgandik?”, “Shakllar nimasiga qarab ajratilar ekan?”, “Shakllarni ajratishda nimaga e‘tibor berish kerak?” kabi savollar beriladi

Agar o‘quvchi topshiriqni yengillik bilan bajarayotgan bo‘lsa, uch xil yoki to‘rt xil shakllardan ketma-ketlik tuzsin.

Agar topshiriqning ko‘p qismi to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, shu topshiriqni bajarishda davom etadi.

Agar topshiriqni bajarishga qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi tomonidan ha yoki yo‘q deb javob beriladigan savollar bilan o‘quvchiga qonuniyatni aniqlashga yordam berilsin. Masalan, bo‘sh katakka uchburchakni qo‘yasanmi? Yo‘q. To‘rtburchakchi? Ha.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.

2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном протсесе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.

3. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.

4. Rahmatova F. A., Akramova Z. B. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 133-137.




5. Akramova Z. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 417-422.

6. Akramova Z. Boshlang'ich sinf matematikasini o'qitishda “to'rt bo'yoq muammosi” ga oid masalalarning o'rni //Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar. – 2021. – T. 2. – №. 3.

7. Akramova Z. WAYS TO FORM STUDENTS' LOGICAL THINKING IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2022. – T. 1. – №. 9. – C. 6-9.

8. Akramova Z., Gulmamatova S. KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHISINING TAFAKKURI O' SISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 38-40.

9. Matematika 1 O'qituvchilar uchun qo'llanma. Toshkent-2022



Research Science and
Innovation House

